

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari	108
M.M.Teshaboyev	
Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik	115

SIYOSAT

H.M.Rasulov	
Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida	120
K.X.Avazov	
Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	124
B.M.Jo'raquliev	
Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida	129
D.A.Mamajonova	
Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish.....	133
I.A.Raximov	
"Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni"	138

TARIH

E.G.Radjapov	
Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini	142
B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov	
Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid	148
X.S.Jumanazarov	
Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi.....	154
S.R.Tolibova	
O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida)	159
X.X.Azimov	
Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida)	167
K.S.Karimov	
Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari.....	171
N.Xudoyberdiyeva	
Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi	176
F.U.Temirov	
Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadriddin Ayniyning publisistik faoliyati	179
M.H.Isamiddinov	
O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari.....	183

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Omon Muxtor romanlariga chizgilar	188
M.H.Mamatov, P.M.Ahmadjonov	
Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar	191
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir	195
G.H.Axmedova	
Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm	200
G.V.Abdullayeva	
Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi	204

**BADIIY HAMDA SAN'AT ASARLARIDA O'ZBEK TOG'-OTLIQ DIVIZIYASI
QO'MONDONI MIRKOMIL MIRSHAROPOV TALQINI**

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОМАНДИРА УЗБЕКСКОЙ ГОРНО-КАВАЛЕРИЙСКОЙ ДИВИЗИИ
МИРКОМИЛА МИРШАРОВОПА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИСКУССТВА**

**THE INTERPRETATION OF THE COMMANDER OF THE UZBEK MOUNTAIN CAVALRY
DIVISION MIRKOMIL MIRSHAROPOV IN WORKS OF ART**

¹**Radjapov Erkin Ganiyevich**

¹Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Maqolada o'zbek tog'-otliq diviziyasi tarixi, uning tashkil etilishi hamda O'zbekistonda harbiy ish tarixida tutgan o'rni tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada tarixiy shaxslar hamda jarayonlarni yoritishda badiiy adabiyot, kino, rangtasvir kabi san'at asarlarining ahamiyati, o'zbek tog'-otliq diviziyasining mashhur o'zbek millatiga mansub bo'lgan yagona qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov obrazining badiiy adabiyot, kino, san'at, rangtasvir asarlaridagi talqini, qo'mondon haqida yaratilgan badiiy va kinoasarlari hamda rangtasvir namunalari davdalantirilishi tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматривается история Узбекской горно-кавалерийской дивизии, ее создание, а также ее роль в истории военной работы в Узбекистане. Также в статье рассматривается значение таких произведений искусства, как художественная литература, кино и живопись, в освещении исторических личностей и процессов, трактовка образа Миркомил Миршаропова, единственного командира узбекской горно-кавалерийской дивизии, принадлежавшего к знаменитой узбекской национальности, в произведениях художественной литературы, кино, искусства и живописи анализируется художественность и ее воплощение в кинематографических произведениях и образцах живописи.

Abstract

The article examines the history of the Uzbek mountain-cavalry division, its establishment, and its role in the history of military work in Uzbekistan. Also, in the article, the importance of works of art such as fiction, film, and paintings in illuminating historical figures and processes, the interpretation of the image of Mirkomil Mirsharopov, the only commander of the Uzbek mountain-cavalry division, who belongs to the famous Uzbek nationality, in works of fiction, cinema, art, and paintings, the artistic and its embodiment in cinematographic works and painting samples is analyzed.

Kalit so'zlar: diviziya, harbiy kadrlar, Mirsharopov, O'rta Osiyo Harbiy okrugi, portret, batal, harbiy marsh, kalorit, qatag'on, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi, otliq polk, qurolli qarshilik harakati.

Ключевые слова: дивизия, военнослужащие, Миршаропов, Среднеазиатский военный округ, портрет, батальон, военный марш, калорит, репрессия, Хорезмская Народная Советская Республика, кавалерийский полк, движение вооруженного сопротивления.

Key words: division, military personnel, Mirsharopov, Central Asian Military District, portrait, battalion, military march, caloric, repression, Khorezm People's Soviet Republic, cavalry regiment, armed resistance movement.

KIRISH

Tarixiy jarayonlar, davr va u bilan bog'liq shaxslarni yoritish, ularga baho berish hamda tarixiy tavsif berishda arxiv hujjatlari va manbalar bilan bir qatorda badiiy adabiyot, kino, san'at asarlarining o'rni beqiyos. Har qanday tarixiy jarayon va shaxs adabiyot va san'at asarlarining obyekti bo'lib kelgan.

O'zbekistonda sovet hokimiyati yillarida tashkil etilgan eng katta harbiy tuzilmalardan biri hisoblangan 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasi [1] va unda xizmat qilgan o'zbek harbiy mutaxassislari ko'plab badiiy, san'at asarlari uchun mavzu, bosh qahramon bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sovet hokimiyati yillarida "Qizil yulduz" [2], "Yer yuzi" [3], "Qizil O'zbekiston" [4], kabi gazeta, jurnallar sahifalarida 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasi va diviziyada xizmat qilgan harbiy mutaxassislarning jangovar tayyorgarliklari to'g'risidagi turkum publitsistik maqolalar berib borildi. Davriy matbuot nashrlarida O'zbek tog'-otliq diviziyasidagi ijtimoiy-madaniy hayot, diviziya harbiylarining tayyorgarlik jarayonlari, shuningdek, harbiy namuna ko'rsatgan mahalliy millatga mansub diviziya qo'mondonlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

TARIX

1931-yil noyabrdan o'zbek birlashgan brigadasiga Mirkomil Mirsharopov [5] qo'mondon va harbiy komissari etib tayinlandi. 1932-yil 17-maydan esa u 6-O'zbek tog'-otliq diviziyasi (1936-yil 21-maydan esa 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasi deya qayta nomlangan - R.E.) qo'mondoni hamda harbiy komissari sifatida faoliyat ko'rsatdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Mirsharopov qo'mondonligi davrida O'zbek tog'-otliq diviziyasining shuhrati va harbiy salohiyati juda yuksaldi, ko'plab iste'dodli o'zbek harbiy kadrlari voyaga yetdi.

NATIJALAR

O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning otasi Davron Xasanov ham o'zbek tog'-otliq diviziyasining polklaridan birida xizmat qilgan bo'lib, bu haqida shoir "Otamning qo'lida "UKP" degan tatuировка bor edi. Bu "O'zbek otliq polki"ni anglatar edi. Ammo otam negadir o'zining harbiy hayoti haqida gapirishni xushlamas edi. Men faqat otamning afsonaviy o'zbek harbiy qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov qo'mondonligidagi polkda xizmat qilganini bilaman..." [6], deya xotirlaydi.

M.Mirsharopov qo'mondon etib tayinlangan dastlabki yildayoq diviziya boshqa harbiy qismlar bilan musobaqalashib, O'rta Osiyo Harbiy okrugida ikkinchi o'rinni egallaydi.

Shu sababli o'zbek tog'-otliq diviziyasi haqida yaratilgan badiiy, san'at asarlarning salmoqli qismida diviziya qo'mondon (kombrig)i Mirkomil Mirsharopov bosh qahramon sifatida olingan.

Diviziya qo'mondoni sifatida Mirkomil Mirsharopovning obro'si diviziya harbiylari va xalq orasida juda mashhur bo'lib, hatto o'zbek oilalarida yangi tug'ilgan chaqaloqlarga havas qilib Mirkomil ismini qo'yish urf bo'ldi. O'zSSR Markaziy Ijroiya qo'mitasi birinchi kotibi Akmal Ikromov [7] (1898-1938) ham o'g'liga Komil deya ism ko'ygani ham M.Mirsharopovga bo'lgan hurmati yuzasidan bo'lsa ajab emas. Hatto 1960-yilda A.Ikromovning o'g'li K.Ikromov tomonidan M.Mirsharopov va uning harbiy faoliyatiga bag'ishlangan "Karvon o'tar, iz qolar" nomli tarixiy qissa ham yozildi [8]. Qissa Xorazmda sovet hokimiyatiga qarshi boshlangan qurolli harakat hamda uni tugatishda M.Mirsharopov qo'mondonligidagi Xorazm Xalq Sovet Respublikasi respublikasi qurolli kuchlarining ishtiroki qaratilgan harbiy jarayonlar haqida bo'lib, qissada harakatning paydo bo'lishining obyektiv va subyektiv sabablari yoritilmagan. Umuman qo'mondon shaxsiyati va harbiy faoliyati yoritilgan badiiy adabiyot namunalarining barchasi sovet mafkurasi andozalari asosida yozilgan.

A.Ikromovning o'g'li K.Ikromov tomonidan yozilgan "Karvon o'tar, iz qolar" nomli tarixiy qissa M.Mirsharopov va uning harbiy faoliyati aks etgan dastlabki adabiy asar emas edi. M.Mirsharopov va uning diviziyasi haqida dastlab Maqsud Shayxzoda tomonidan "Qizil O'zbekiston" gazetasida "O'zbek diviziyasi marshi" nomli she'r e'lon qilinadi. Marshda kommunistik mafkura ta'siri sezilsa-da, u o'zbek tog'-otliq diviziyasi haqida yozilgan kam sonli she'riy namunalardan biri hisoblanadi. M.Mirsharopov qo'mondonlik qilayotgan hamda o'zbek xalqi orasida nufuzi juda baland bo'lgan O'zbek tog'-otliq diviziyasi haqidagi ushbu marsh

"Qadamlar marshi jo'r bo'lmish,

Qizib-da kishnar ayg'irlar.

Ochiqdir og'zi to'plarning,

Diviziya doimo tayyor" [9] misralari bilan boshlanar edi.

O'zbek tog'-otliq diviziyasi mashhur qo'mondonining shaxsiyati va harbiy faoliyati haqida bir necha badiiy filmlar ham suratga olindi. M.Mirsharopovning Junaidxonga qarshi kurashi tarixi haqida rejissyorlar Ali Hamroyev tomonidan 1968-yilda "Qizil qumlar" ("Krasnye peski"), 1976-yilda esa Komil Yormatov tomonidan "O'lis-yaqin yillar" ("Dalyokiye blizkiye gody") nomli badiiy filmlar suratga olindi.

Ali Hamroyev rejissyorligida suratga olingan "Qizil qumlar" badiiy filmida Mirkomil Mirsharopov obrazini Qirg'iziston xalq artisti Bolot Beyshenaliyev (1937-2002) [10] gavdalantirgan. Aktyor B.Beyshenaliyev 1958-1963-yillarda Toshkent teatr va rassomlik instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)da tahsil olgan bo'lib, o'zbek xalqi madaniyati, urf-odatlar bilan yaqindan tanish bo'lgan. Aktyorning yuz qiyofasidagi o'xshashlik, shuningdek o'zbek xalqi mentaliteti bilan yaqindan tanishligi sababli aktyor Mirsharopov obrazi uchun tanlangan bo'lsa ajab emas.

"O'lis-yaqin yillar" nomli tarixiy drama yo'nalishidagi filmida esa M.Mirsharopov obrazini o'sha vaqtda o'ttiz yoshda bo'lgan O'zbekiston xalq artisti Saidkomil Umarov [11] ijro etdi [12]. "O'lis-yaqin yillar"

filmi

1977-yil Latviya poytaxti Riga shahrida bo'lib o'tgan X Butunittifoq kinofestivalida hakamlar hay'atining maxsus mukofoti bilan taqdirlandi.

“Qizil qumlar” badiiy filmida Mirkomil Mirsharopov obrazi bosh qahramon sanalib, film voqealari shu qahramon atrofida shakllangan bo'lsa, “Olis-yaqin yillar” filmida u ayrim sahnalardagini ko'rinish beradi. Har ikki aktyor ham qahramonlari qiyofasini maromiga yetkazib o'ynagan bo'lishsa-da, film bosh g'oyasi kommunistik mafkura andozalari asosida yozilgan hamda unga xizmat qilishi lozim edi.

Sovet hokimiyati yillarida yetishib chiqqan o'zbek harbiy qo'mondonlarining eng iste'dodli vakillaridan biri Mirkomil Mirsharopov shaxsi va harbiy faoliyati nafaqat badiiy asarlar, kinofilmlarda, balki rang tasvir namunalari ham aks ettirildi.

O'zbekiston xalq rassomi Javlon Umarbekov tomonidan 1977-yilda “Mirkomil Mirsharapov” portreti yaratildi. Ushbu “Mirkomil Mirsharapov” portreti rassom ijodiy davrining birinchi bosqichiga to'g'ri keladi.

“Mirkomil Mirsharopov” portretida asar qahramoni otliq chavandoz ko'rinishida aks ettirilgan. Dunyo rangtasviri tarixida otliq portretlar Uyg'onish davridan boshlab ko'plab yaratilgan va ular asosan tantanavor (paradnyy) portretlar sarasiga kiritiladi. Albatta otliq tasvirlar qadimda turli madaniyat tasviriy san'atida ham ko'p uchraydi, biroq ular asosan batal [13] janrida yaratilgan. Titsianning “Karl V” portreti (1548), Rubensning “Filipp II ning otliq portreti” (1628), Diyeo Velaskesning “Graf gersog Olivaresning otliq portreti” (1934), Van Deykning “Karlning otliq portreti” (1637), K.Bryullovning “Chavandoz ayol” (1832), “Myussarlar juftligi portreti” (1849) va ko'plab boshqa otliq portretlar asosan hukmdor, saroy ayonlari va harbiy qo'mondonlarni ulug'lash maqsadida yaratilganligini ko'rsatadi. Javlon Umarbekov ham portret qahramonini aynan shu ko'rinishda tasvirlagani bejiz emas. Sababi Mirkomil Mirsharopov 1932-1935-yillarda O'rta Osiyo respublikalari orasida eng katta harbiy tuzilmalardan biri hisoblangan 6-O'zbek tog'-otliq diviziyasining qo'mondoni bo'lgan.

Rangtasvir asarida avvalo kompozitsiya markazini to'ldirib turgan yosh va navqiron, jasoratli yigit obrazi ko'rinadi. Harbiy libosi, qurol-aslahalari uning kim ekanligi hamda qaysi davr qahramoni ekanligini aniq ko'rsatib beradi. Asar qahramoni tomoshabinga qarab turishi, ko'zlaridagi dadillik, otni irg'ishiga qaramay jilovini qattiq ushlab turishi uning o'ziga ishonchini namoyon qiladi. Rassom obraz yaratishda portret jihatlarini aniq va ifodali yetkazib berishga harakat qilgani M.Mirsharopovning saqlanib qolgan fotolaridan ko'rinib turadi.

Asar koloriti rassomning erta ijodiy davriga xos iliq va sovuq ranglar kontrasti asosida yaratilgan jigarrang tepaliklar, uzoqdagi moviy tog'lar va oq bulutli osmon o'ziga xos rang o'yinini yaratadi. Orqa fondagi manzara psixologik ahamiyatga ega bo'lib, oppoq bulutlar orasida ko'rinayotgan musaffo osmon qahramon yuz ifodasida xis etilayotgan ezgulik ramzini aks ettiradi. Kartinning asosiy qahramoni atrofidagi qolgan elementlar, fondagi otliq askarlar, bularning barchasi to'ldiruvchi sifatida tomoshabin nigohini markazga qaratadi.

O'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni siymosi nafaqat adabiyot namunalari, kino, rang tasvir asarlarida, balki mahobatli haykallarda ham o'z aksini topdi.

O'zbek tog'-otliq diviziyasining qarorgohi Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahrida joylashgan edi. Shu sababli 1984-yil viloyat markazi Samarqand shahrida qo'mondon M.Mirsharopov sharafiga ulkan haykal o'rnatildi. Mazkur monument arxitektorlar N.Sodiqov, A.Gemedji, haykaltaroshlar N.Bandzeladze, V.Degtyarevlar tomonidan yaratilgan bo'lib, granitli asosi bilan balandligi qariyb 8 metrni tashkil etuvchi ushbu haykalda ham qo'mondon ot ustida mag'rur turgan holda gavdalanirildi [14].

Keyinchalik qo'mondon haykali noma'lum sabablarga ko'ra olib tashlandi. 1996-yil mamlakatimizda “Amir Temur yili” deb e'lon qilingan hamda respublika, xalqaro miqyosda Amir Temur tavalludining 660-yilligi keng nishonlangan edi. Yubiley tantanalari munosabat bilan Toshkent, Shahrisabz shaharlari kabi Samarqand shahrida ham buyuk sarkarda va qo'mondon Amir Temur (1336-1405) sharafiga Samarqand markazida mahobatli haykal o'rnatildi. Shu munosabat bilan qo'mondon M.Mirsharopov haykali olib tashlandi.

Haykalning olib tashlanishi xususida O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron “Sovet davrida Samarqandda qo'mondon (Mirkomil Mirsharopov – R.E.) sharafiga yodgorlik o'rnatildi, keyinchalik monument negadir olib tashlandi” [15], deya xotirlaydi.

TARIX

O'zbek adabiyotida o'zbek tog'-otliq diviziyasi va uning qo'mondoni M.Mirsharopov haqida yaratilgan asarlar son jihatidan ko'p emas. Buning asosiy sabablaridan biri 1937-1938-yillardagi qatag'on siyosati tufayli qatag'onga uchragan shaxslarning faoliyatini o'rganishga sovet hokimiyati tomonidan ruxsat berilmaganligi, ularning faoliyati, fojiali taqdiri aks etgan arxiv hujjatlari esa tadqiqotchilardan berkitib kelinganligidir.

Yuqorida keltirilgan A.Ikromovning o'g'li K.Ikromov tomonidan M.Mirsharopov va uning harbiy faoliyatiga bag'ishlangan "Karvon o'tar, iz qolar" nomli tarixiy qissadan tashqari, 1960-1976-yillarda filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Jumaniyoz Sharipov tomonidan ham "Xorazm" roman-tetrologiyasi yozildi. Mazkur tetralogiyada sovet mafkurasi ta'siri sezilsa-da, romanda Xiva xoni Asfandiyorxon hukmronligi (1910-1918) davrida Xorazm aholisining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, o'lkada sovet hokimiyatining o'rnatilishi hamda bunga qarshi boshlangan qurolli harakat tarixi, Mirkomil Mirsharopovning Xorazm Xalq Sovet Respublikasi harbiy noziri sifatidagi faoliyati aks ettirilgan [16].

Ichki Ishlar Xalq Komissarligi (NKVD) va diviziya maxsus bo'limi xodimlari tomonidan 1937-yilda 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasining barcha ko'zga ko'ringan harbiy mutaxassislari, jumladan, diviziya qo'mondoni M.Mirsharopov qamoqqa olindi.

M.Mirsharopov hamda 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasidan qamoqqa olingan 18 nafar harbiylarning "jinoiy ishi" 1938-yil 10-oktyabrda SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasining majlisida ko'rib chiqiladi. Ularning barchasi sud majlissda o'zlarining aybsiz ekanliklarini, ularga nisbatan qo'yilgan yblarning tuhmat ekanini har qancha ta'kidlashga urinishmasin, sud hay'ati tomonidan O'zbekiston SSR JKning 57-2, 64- va 67-moddalari bo'yicha aybdor deb topilib, 1938-yil 10-oktyabrda otuvga xukm qilinadi. O'zbekiston SSRning faxri bo'lgan 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasining 17 nafar harbiy mutaxassislari ustidan chiqarilgan adolatsiz hukm shu kunning o'zida ijro etildi [17].

MUHOKAMA

Moskvada 1956-yil 14-25-fevral kunlari Kommunistik partiyaning XX syezdi bo'lib o'tdi. Syezddan so'ng qatag'on siyosati kurboni bo'lgan shaxslarni oqlash jarayoni boshlandi. SSSR Oliy Sudi Harbiy Kollegiyasi tomonidan 1957-yil 18-aprelda Mirkomil Mirsharopov ishi qayta qayta ko'rib chiqildi. Shundan so'ng uning nomi va shaxsiga bo'lgan salbiy munosabat ijobiy tomonga o'zgara boshladi. O'zbekistonning Toshkent, Samarqand shaharlaridagi bir qancha ko'chalarga qo'mondon M.Mirsharopov nomi berildi.

Biroq noma'lum sabablarga ko'ra Mirkomil Mirsharopov nomi bilan atalgan ko'chalar so'nggi yillarda boshqa nomlarga o'zgartirila boshlandi. Jumladan, Xorazmda dastlabki professional qurolli kuchlar asoschisi hamda qo'mondoni bo'lgan shaxsning faoliyati hamda xizmatlaridan [18] xabardor yoki bexabar holda Xorazm viloyati xalq deputatlari Shovot tumani kengashining "Shovot tumanidagi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va qayta nomlash to'g'risida" 2016-yil 25-iyuldagi 19-64-son qarori asosida Shovotqal'a qishlog'idagi Mirkomil Mirsharopov nomi bilan atalgan ko'cha qayta nomlanib [19], mazkur ko'chadan qo'mondon nomi olib tashlandi. Balki qo'mondoning sovet hokimiyati yillarida qizil qo'shin safida xizmat qilganligi sabab bo'lgandir. Biroq, qo'mondoning sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston SSRda tashkil etilgan dastlabki professional qurolli kuchlarning asosi bo'lib xizmat qilgan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi armiyasining asoschisi, shuningdek harbiy noziri bo'lganligini ham unutmash lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarixiy jarayon hamda voqealarni yoritishda san'at asarlarining ahamiyati beqiyos bo'lib, ma'lum tarixiy davrning g'oyaviy-mafkuraviy qarashlari, ijtimoiy hayot, o'sha davr kishilarining tashvishu quvonchlari haqida tasavvur hosil qilish va ko'rilayotgan tarixiy davr manzaralarini to'liqroq jonlantirishga xizmat qiladi.

O'zbek tog'-otliq diviziyasining qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov ham sovet hokimiyati yillarida yaratilgan ko'plab badiiy asarlarning bosh qahramoni bo'ldi. Ularning ayrimlari sovet hokimiyati g'oyalari hamda mafkurasi asosida g'aydalantirilgan bo'lsa-da qo'mondon shaxsi, uning harbiy mahorati va faoliyati, qo'mondon yashagan tuzum haqida ma'lumot olish imkonini beradi

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 9-O'zbek tog'-otliq diviziyasi – 1921-yilning fevralida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi 1-Buxoro otliq polki negizida otliq divizioniga aylantirilishi bilan asos solingan. 1932-yil 1-oktyabrdan 6-O'zbek tog'-otliq diviziyasi, 1936-

yilning 21-mayidan esa 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasi nomi bilan yuritila boshlangan. 1940-yilning 1-oktyabr holatiga ko'ra, diviziya tarkibiy jihatdan 4049 kishidan iborat bo'lib, shundan 382 kishi komandir, 603 kishi – kichik komandir, 3064 kishi esa oddiy askar bo'lgan. 1937-1938-yillarda SSSR amalga oshirilgan ommaviy qatag'onlar vaqtida O'zbek tog'-otliq diviziyasi ofitserlik tarkibining katta qismi qatag'onga uchrab, ko'zga ko'ringan professional harbiy mutaxassislaridan ajraladi. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, 1941-yilning iyul oyida urushning dastlabki janglarida ishtirok etgan diviziya juda katta talafotlar ko'radi hamda shu talofat sabab bilan butunlay tarqatib yuboriladi // *Bu haqida qarang*: Radjapov E.G. O'zbek tog'-otliq diviziyasi tarixidan. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. №1/2. 2015. –B.32-40.

2. *“Qizil yulduz”* – O'zbek tog'-otliq diviziyasining nashri. Turkiston fronta shtabining harbiy bo'limi tomonidan 1925-yildan Toshkent shahrida chikarilgan. Hozirda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida gazetaning 1927-yil 8, 10, 17 sonlari saqlanib qolgan, Rossiya Davlat kutubxonasi (RGB)da 1925-1936-yillardagi soni to'liq saqlanmokda.

3. *“Yer yuzi”* – hozirgi “Guliston” jurnalining 1925-1931-yillardagi nomi.

4. *“Qizil O'zbekiston”* – 1924-yil 5-dekabrda Toshkent shahrida chiqqan boshlagan siyosiy-ijtimoiy gazeta. 1924-yil dekabrghacha “Turkiston” nomi bilan nashr etilgan. Hozirda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, shuningdek, O'zbekiston Milliy Arxivi (O'zMA) va “Turon” axborot-resurs markazida saqlanmoqda.

5. Mirkomil Mirsharopov (1900-1938) – harbiy arbob. Avliyoota (hozirgi Tarozi) shahrida tug'ilgan. Rus-tuzem maktabini tugatgan (1914). 1917-yilda Toshkentga ko'chib kelgan. Xorazm Xalk Sovet Respublikasi harbiy noziri (1921), nozir muovini (1924). U XXSRda milliy qo'shin tuzishga alohida e'tibor karatdi. Moskvadagi harbiy akademiyada o'qidi (1925-1929). 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni va komissari (1932-1935). 1938-yilda “xalq dushmani” sifatida nohaq otib tashlandi. Bu haqida qarang: Radjapov E., Yo'ldoshev A. Qo'mondonning ma'shum taqdiri // Tarixning noma'lum sahifalari: ilmiy maqolalar, hujjat va materiallar, xotiralar. 6-kitob. – Toshkent: “UNLIMITED PRINT”. 2017. – B.104-118.

6. Слушал небо, как дети и маги... Поэт Хуршид Даврон – о древних суфиях, узбекских текстах и тайной связи Центральной Азии и Латинской Америки // <https://greylib.align.ru/1432/slushal-nebo-kak-deti-i-magi-poet-xurshid-davron-o-drevnix-sufiyax-uzbekskix-tekstax-i-tajnoj-svyazi-centralnoj-azii-i-latinskoj-ameriki.html>

7. Ikromov Akmal Ikromovich (1898-1938) – 1898-yilda Toshkent shahrining Toshkentning O'qchi mahallasida maktabdor Ikrom domla oilasida tug'ilgan. Otasining maktabida savod chiqargan. Yoshligidan fors va arab tillarini puxta egallab, sharq adabiyotini chuqur o'rgangan. Toshkent shahrida o'qituvchi (1918-1919), “Izchilar to'dasi” va “Chig'atoyg urungi” a'zosi, Elxon taxallusi bilan she'rlar yozgan. Namangan, Farg'ona, Sirdaryo viloyatlari partiya tashkilotlarida turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan (1919-1921). Turkiston Kommunistlar partiyasi Markaziy Kengashining kotibi va tashkiliy instruktorlik bo'limi mudiri (1921-1922). Turkiston Respublikasida yangi iqtisodiy siyosat (NEP) ni amalga oshirishda tashabbuskorlik qilgan. 1922-1924-yillarda Moskvadagi Kommunistik universitetda o'qidi. 1925-yil yanvardan Toshkent viloyati partiya komiteti kotibi. 1925-yil fevraldan O'zbekiston Kommunistlar Partiyasi Markaziy Kengashi kotibi, birinchi kotibi (1929-yil dekabr — 1937-yil sentabr). 1931-1934-yillarda Butun ittifoq kommunistlar partiyasi markaziy kengashining O'rta Osiyo byurosi kotibi. Butun Rossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi a'zosi, 1925-1937-yillarda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi a'zoligiga nomzod. O'zSSR Markaziy Ijroiya qo'mitasi Prezidiumi a'zosi (1925-1937). 1937-yil sentyabrda Toshkentda qamoqqa olinib, sovetlarga qarshi “O'ng troskiychi blok” deb atalgan ish bo'yicha Moskvada sud qililib, sobiq SSSRni bo'lib yuborish, jumladan, O'rta Osiyo respublikalarini ajratib olish, davlat tuzumini ag'darish, kapitalizmni, burjuaziya hokimiyatini tiklashda ayblandi va otib tashlandi // O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.324

8. .Икрамов К. Караваны уходят - пути остаются. Повесть. – Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1962. 132 с.

9. Shayxzoda Maqsud. O'zbek diviziyasi marshi // Qizil O'zbekiston. 1933yil 23-fevral. 45-son. – B.3.

10. Bolot Beyshenaliyev (1937-2002) – qirg'iz kino va teatr aktyori. 1937-yil 25-iyunda Qirg'izistonning Toktagul tumani To'rtko'l qishlog'ida tug'ilgan. 1957-yilda Qirg'iz opera va balet teatri huzuridagi studiyani, 1963-yilda esa Toshkent teatr va rassomlik instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)ni tamomlagan. Mehnat faoliyatini 1963-yilda “Qirg'izfilm” studiyasida rejissyor yordamchisi sifatida boshlagan. Aktyor faoliyati davomida 30 dan ziyol davlatlarning kinostudiyalari tomonidan ishlangan filmlarda turli rollarni ijro etgan. 1994-yilda Qirg'iziston xalq artisti unvoni bilan mukofotlangan. Aktyor ijodiy faoliyati davomida Chingizxon, Abay, Mirkomil Mirsharopov kabi tarixiy shaxslarni gavdalantirgan. 2002-yil 18-noyabrda vafot etgan // Бейшеналиев Болот // <https://open.kg/about-kyrgyzstan/famous-personalities/cinematographers-of-soviet-kirghizia/33069-beyshenaliyev-bolot.html>

11. Saidkomil Umarov – 1946-yil 2-noyabrda Toshkentda tug'ilgan. 1969-yilda “O'zbekfilm” qoshidagi teatr studiyasini, 1971-yilda Toshkent teatr va rassomlik institutining “Teatr va kino aktyori” fakultetini tugatgan. Uning ijodi talabalik yillaridayoq boshlangan edi. H.Fayziyevning “Oy borib, omon qayt” (1969) badiiy filmidagi Elmurod u yaratgan dastlabki obraz bo'ldi. S.Umarov institutni bitirishi bilan o'qituvchi Olim Xo'jayev taklifiga binoan Hamza teatri (hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri)ga aktyor sifatida ishga qabul qilindi. Aktyor ijodiy faoliyati davomida kino va teatr sahnasida Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Ismoil Gaspirinskiy, Mirkomil Mirsharopov kabi tarixiy shaxslarni gavdalantirgan. Aktyor 2000-yilda “O'zbekiston xalq artisti” faxriy unvoni bilan taqdirlandi // Saidkomil Umarov // <https://www.milliyteatr.uz/truppa/akterlar/88-saidkomil-umarov.html>

12. Далёкие близкие годы // <https://goo.su/TzFAI>

13. Batal janri – (французча bataille – jang) – tasviriy san'atning urush va harbiy hayot mavzularini aks ettirishga bag'ishlangan janri hisoblanib, jang ko'rinishlari, harbiy yurishlar, qurolli kuchlarning hayotini tasvirlash batal janrida asosiy o'rinda turadi. Aniq jang lavhasini ifodalash, uning mazmunini ochib berilishi bu janrni tarixiy janrga yaqinlashtiradi // Abdullayev N. Batal janri // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, 2000. – B.646.

14. Самарканд: ступени роста // Журнал “Архитектура и строительство Узбекистана”; №1 1985 г. -С.16.

TARIX

15. Слушал небо, как дети и маги... Поэт Хуршид Даврон – о древних суфиях, узбекских текстах и тайной связи Центральной Азии и Латинской Америки // <https://greylib.align.ru/1432/slushal-nebo-kak-deti-i-magi-poet-xurshid-davron-o-drevnix-sufiyah-uzbekskix-tekstax-i-tajnoj-svyazi-centralnoj-azii-i-latinskoj-ameriki.html>

16. Sharipov Jumaniyoz. Xorazm: roman. – Toshkent: "Toshkent", 1965.

17. RGASPI (Rossiya Davlat ijtimoiy-siyosiy tarix arxivi). 17-fond, 171-ro'yxat, 418-ish, 115-varaq.

18. Xorazm Respublikasi tashkil topgach, M.Mirsharapov 1921-yil 15-avgustda respublika harbiy kengashi raisi va harbiy noziri etib tayinlandi. Shu bilan birga 1920-1923-yillarda 1-Xorazm otliq polkining ko'mondoni, respublika harbiy noziri sifatida ham faoliyat olib bordi. U 1920-yilda 500 dan ortiq mahalliy millat vakillarini o'zida jamlagan eskadron tuzishga muvaffaq bo'ladi (RGVA (Rossiya Davlat Harbiy arxivn), 40814-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 88-varaq). Shuningdek T.Qirg'izov va M.Mirsharapovlar tomonidan Xorazmda alohida o'qchi batalyon va otliq polk tashkil etildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, T.Qirg'izov va M.Mirsharapov sa'y-harakatlari bilan tashkil etilgan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi qo'shini milliy-hududiy chegaralanish siyosatidan keyin tashkil topgan O'zbekiston SSR milliy harbiy qismlarini shakllantirish uchun asos bo'lgan Bu haqida qarang: Radjapov E., Yo'ldoshev A. Qo'mondonning ma'shum taqdiri // RGVA (Rossiya Davlat Harbiy arxivn), 40814-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 88-varaq.

19. Xorazm viloyati xalq deputatlari Shovot tumani kengashining "Shovot tumanidagi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va qayta nomlash to'g'risida" 19-64-son qarori // <https://lex.uz/docs/3039250>